



UO'K: 75.041-055.2(575.1)(09)

Zilolaxon ASQAROVA,

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti katta o'qituvchisi, PhD, Sharq miniatyura san'ati muzeyi ilmiy xodimi
E-mail: asqarova88@bk.ru

Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti, PhD N.Kultasheva taqrizi asosida

O'ZBEKISTON ZAMONAVIY SAN'ATIDA O'RTA ASR SHARQ MINIATYURA SAN'ATI MAVZULARINING BADIY TALQINI

Аннотация

Ushbu maqola O'zbekiston zamonaviy san'atida o'rta asr Sharq miniatyura san'ati mavzularining badiiy talqini masalalariga bag'ishlangan. Unda zamonaviy o'zbek rassomlarining miniatyura merosiga murojaati, uning sabablari va badiiy xususiyatlari tahlil etilgan. Maqolada miniatyura an'alarining zamonaviy san'at asarlarida qanday aks etishi, rassomlarning ushbu an'alarini qay darajada saqlab qolganligi va qanday yangi badiiy yechimlar taklif etayotganligi ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari o'zbek zamonaviy san'atida miniatyura mavzularining badiiy ahamiyatini baxolash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy san'at, O'zbekiston, miniatyura, Sharq, badiiy talqin, an'ana, meros, rassom, miniatyura, tasavvuf, ilohiy ishq, Majnun, darvesh, so'fizm, Sharq, kolorit, Layli, hirqa.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СЮЖЕТОВ СРЕДНЕВЕКОВОЙ ВОСТОЧНОЙ МИНИАТЮРЫ В СОВРЕМЕННОМ ИСКУССТВЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

Данная статья посвящена вопросам художественной интерпретации тем средневековой восточной миниатюры в современном искусстве Узбекистана. В ней анализируется обращение современных узбекских художников к наследию миниатюры, его причины и художественные особенности. В статье показано, как традиции миниатюры воплощаются в произведениях современного искусства, в какой степени художники сохранили эти традиции и какие новые художественные решения они предлагают. Результаты исследования позволяют оценить художественное значение тем миниатюры в современном узбекском искусстве.

Ключевые слова: Современное искусство, Узбекистан, миниатюра, Восток, художественная интерпретация, традиция, наследие, художник, миниатюра, мистика, Божественная любовь, Меджнун, дервиш, суфизм, Восток, колорит, хирга.

ARTISTIC INTERPRETATION OF MEDIEVAL EASTERN MINIATURE ART THEMES IN MODERN UZBEK ART

Annotation

This article explores the artistic interpretation of medieval Eastern miniature art themes in contemporary Uzbek art. It analyzes the reasons behind modern Uzbek artists' engagement with the miniature heritage and examines the artistic characteristics of this approach. The article demonstrates how miniature traditions are reflected in contemporary artworks, the extent to which artists have preserved these traditions, and the novel artistic solutions they are proposing. The research findings enable an assessment of the artistic significance of miniature themes in modern Uzbek art.

Key words: Contemporary Art, Uzbekistan, miniature, East, artistic interpretation, tradition, heritage, artist, miniature, mysticism, divine love, Majnun, dervish, Sufism, East, color, hymn.

Kirish. O'zbekiston zamonaviy san'ati jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan holda rivojlanib kelmoqda. Ushbu jarayonda o'tmish merosiga murojaat qilish, an'anaviy san'at turlarini qayta anglash va ularni yangicha badiiy talqin etish muhim o'rin tutadi. Xususan, o'rta asr Sharq miniatyura san'ati o'zining yuksak badiiy saviyasi, falsafiy chuqurligi va estetik jozibasi bilan zamonaviy o'zbek rassomlari uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. 1920 – 1970 yillarda miniatyura rangtasviri san'at turi sifatida deyarli yo'q edi. Ammo undagi badiiy an'alar rangtasvirchi rassomlar: Usta Mo'min, O'ganes Tatevosyan, Chingiz Axmarov rahbarligidagi rassomlar va xalq ustalaridan iborat ijodiy guruh turdi. O'zbek lokli miniatyurasining tiklanish jarayoni asosiy muammolari va trayektoriyasini shunday ta'riflash mumkin: Rossiyaning Palex lokli miniatyurasining ijodiy va texnologik tajribalarini o'zlashtirgan o'zbek rassomlari tarixiy Sharq miniatyurasini hozirgi zamonda rivojlantirish yo'llarini topishlari lozim edi.

Asrimizning yetmishinchi yillari oxirrog'ida O'zbekiston madaniy hayotida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, bu davrda tasviriy san'atning toshqog'ozga chiziladigan lokli rangtasvir turi – miniatyura san'ati paydo bo'ldi. Aynan o'sha davrda xalq san'atining barcha turlarini saqlab qolish, rivojlantirish va qayta tiklash maqsadida nafis naqshu nigor tajriba ilmiy ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etildi. Ustaxonaga O'zbekiston rassomlar uyushmasining badiiy fondi tasarrufidagi

“Usto” xalq san'ati Birlashmasi asos soldi. Unga taniqli rassom Chingiz Axmarov mutasaddi etib tayinlandi. Izlanishlar natijasida o'zbek lokli mo'jaz san'at ishqibozlari va boshlovchilarining dastlabki asarlari dunyoga keldi. O'zbekiston xalq rassomi Chingiz Axmarov rahbarligi ostida Niyozali Xolmatov, Shomahmud Muhammadjonov, Abdubosir Qambarov, Natalya Choy, Munira Sotiboldiyeva, G'ayrat Kamolov, Abdug'ani Aldashevlar qunt bilan mehnat qildilar. Mustaqillik davrida miniatyura san'ati O'zbekistonda shunchaki an'ana yoki san'atning bir turi emas, balki lokli miniatyura, devoriy surat, qog'oz, mato va charmdagi miniatyurani o'zida mujassam etgan ixcham badiiy-uslubiy yo'nalishga aylandi.

Zamonaviy o'zbek miniatrasining qayta tiklanishi va rivojlanishida Shomahmud Muhammadjonovning ijodi bevosita muhim ahamiyat kasb etadi. U miniatyura san'atini taqlid qilib, takror qilib yaratgan. U boshqa ijodkorlarga o'xshab miniatyura asarlariga yangilik kiritishni hohlamagan. Rassom faqatgina Buxoro, Samarqand maktablari miniatyurasiga taqlid qilgan. Uning fikricha, Buxoro, Samarqand maktablarida o'ziga xos uslub bor. Eron uslubida figuralarni to'liqligi, fikrlar, naqshlar, ranglar o'yini juda ko'p uchraydi. Buxoro, Samarqand miniatyurasida esa kam figurali, ranglari aniq, yorqin, bir-biriga zid tarzda emas deb aytadi. Shuning uchun ham rassom aynan Buxoro, Samarqand miniatyurasiga taqlid qilib yaratadi. Taqlid qilganda ham san'at asarlari o'ta mohirlik bilan yaratilgan. Taqlid qilib yaratgan ba'zi asarlari haqiqiydan-da chiroyliroq chizilgan. U asarlarida

miniatyurani boricha yaratadi. Uning asarlarini chet davlatlari muzeylarining kolleksiyalarida uchratish mumkin.

Shomahmud Muhammadjonovning 2004 yilda yaratilgan “Farhod va Shirin” asarida Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi ikkinchi doston “Farhod va Shirin”dagi Farhodning tilsimli ko'zguni ko'rib ko'zguning sehrini ocholmay, Yunoniston safariga, Suqrot huzuriga borgani tasvirlangan. Kompozitsiyada g'orda suhbatlashib o'tirgan uch nafar insonlar ya'ni Suqrot, Farhod va Suhaylo ismli hakim (donishmand) ko'rsatilgan. Suhaylo Farhodning tariqat yo'lidagi birinchi piri. U Farhod yengib o'tishi kerak bo'lgan to'siqlar: ajdarho va devdan xabar beradi. Tasavvufda ajdarho – nafs timsoli, dev – saltanat timsoli hisoblanadi. G'ordan tashqarida o'ng tomonda oq o'tning tizginini ushlab, ular tomonga qarab turgan yigit turibdi. Pastda, gullar va o'simliklar o'sib yotgan joyda bir guruh kishilar otlarining yonida turishibdi. Kompozitsiyaning tepa qismida ikkita yashil daraxt va bitta ohu ko'rinadi. Atrof toshlar va o'simliklar bilan to'la.

Monumental naqshlar va zargarlik buyumlarini yaratish sohasidagi ijodni miniatyura san'ati bilan birga qo'shib olib borgan iste'dodli musavvir Niyozali Xolmatovning ham O'zbekiston miniatyurasi rivojiga qo'shgan xissasi salmoqlikdir. Badiiy hunarmandchilikning bir necha turlari bilan shug'ullanishi rassomning miniatyura rangtasviri olamidagi ijodiy izlanishlarini yanada boyitdi. Xususan, uning miniatyuralaridagi yorqin bezakli bo'yoqlar qabarib turgan sirli halqachalarni eslatadi. N.Xolmatovning asarlari suratning mutanosibligi, kompozitsiyaning lo'ndaligi, xatning sipoligi bilan farqlanib turadi. N.Xolmatov O'zbekistondagi rassomlar orasida birinchilardan bo'lib asarlarida tasavvufona g'oyalarni ifodalagan. Bu diniy ta'limot O'rta asrlarda badiiy ijodga, kishilarning ma'naviy-axloqiy qarashlariga samarali ta'sir ko'rsatgan. N.Xolmatov ushbu ulkan hodisani chuqur his qilgan va buni Zamonaviy O'zbekiston san'atida ko'rsatish zurligini anglagan ijodkordir. O'zbekiston xalq ustasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi Niyozali Xolmatov zamonaviy miniatyura san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Zamonaviy lokli miniatyura san'atida qadimgi musavvirlarning rassomlik an'analari davomchilaridan biri bo'lgan. Rassomning nafis ishlangan lok buyumlari yuqori professionalligi bilan ajralib turadi. Niyozali Xolmatovning ko'p qirrali iste'dodi nafaqat lokli miniatyura san'atida, balki dastgohli rangtasvirning moybo'yoq va tempera texnikalari, kitob illyustratsiyasi, emal va zargarlik san'atida ham namoyon bo'lgan. Ustaning barcha asarlari muallifning o'ziga xos individualligi bilan uyg'unlashgan bo'lib, uni boshqa rassomlarning asarlari bilan almashtirib bo'lmaydi – mumtoz jihatdan jiddiy kompozitsiya, ifoda vositalaridan ixcham va nozik foydalanish va yuqori texnik mahorat egasi. Niyozali Xolmatovning 2013 yilda yaratilgan “Rustam va Suhrobning jangi” miniatyurasi Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asaridagi “Rustamning So'hrob ila jang qilgani” dostoni asosida chizilgan. Dostonda Rustam So'hrob bilan ota va o'g'il ekanligini ikkisi ham bilmasdan jangga kiradilar. Asarda Rustam farzandi So'hrobni ko'ksiga xanjar urgandan so'ng o'g'li ekanligini bilib afsus nadomat chekayotgani tasvirlangan. Kompozitsiyada Rustam va So'hrob qizg'ish-sariq bargli daraxt tagida tasvirlangan. Suhrob ko'zi yumuq, yerda yotgan, Rustam esa unga engashgan holati ko'rsatilgan. Atrof turli gullar, o'simliklar bilan to'la, o'ng tomonda qush iniga qo'yilgan tuxum bilan yashil bargli daraxt ko'rsatilgan. Orqa fonda och jigarrang qirlar va ko'k osmon tasvirlangan.

Bundan tashqari 2006-yilda yaratilgan Kamoliddin Behzodning “Sulton Husayn Mirzo saroyidagi ziyofat” miniatyurasi Kamoliddin Behzodning 1488 yil Hirotda Sa'diyning “Bo'ston” dostoniga ishlangan “Sulton Xusayn Mirzo saroyidagi ziyofat” nomli asaridan nusxa hisoblanadi. Sa'diyning “Bo'ston” qo'lyozmasi sulton Husayn Mirzo Boyqaro uchun kitobxonaning eng yaxshi kitobat ustalari tomonidan yaratilgan. Asar xattoti Sulton Ali Mashhadiy.

Nusxa Niyozali Xolmatov tomonidan to'liqligicha ko'chirilmagan, chap tomon sahifasi o'ng va pastki qismlari ko'rsatilmagan. Asarning asl nusxasi diptix bo'lib, Kamoliddin Behzod tomonidan dastxat qo'yilgan miniatyuralardan biri hisoblanadi. Mazkur qo'sh miniatyura shohlar, sultonlar va eng oliy darajadagi ayonlarning hayoti va o'yin-kulgilarining turli

qirralari aks etgan saroy janrida yaratilgan. Saroylardagi ziyofatlarni maddohlik uslubida tasvirlaydigan o'zidan avvalgi rassomlardan farqli o'laroq, Behzod Sulton Husayn saroyida kechgan shoh hayotining xarakterli tafsilotlarini ikrir-chikirigacha tavsiflab, qahramonlarning xatti-harakatlarini, atrof-muhitni diqqat bilan qalamga tushirgan holda haqiqiy turmush manzaralari aks ettirilgan asarlarni yaratadi.

Niyozali Xolmatov nusxa uchun Behzod diptixining chap qismini tanladi, unda olti nafar erkak figurasi kichkina ayvonda tasvirlangan. Kompozitsiyaning chap tomonida gilamchada o'tirgan yigitning egnida ko'k libos va so'fiylik tariqatiga kirishning ramziy belgisi sifatida belidan o'tkazilgan kamar futa ko'rsatilgan. Yonida chinniqop – chinni idish uchun g'ilof, pastroqda uch dona ko'za turibdi. Kompozitsiya pastki qismining markazidagi xizmatchi yashil-kulrang tusli kiyimda o'ng oyog'i bilan cho'kkalagancha, chap oyog'i ustidagi ko'zani tutib turibdi. Uning tepasidagi sariq libosli yigit esa qora ko'zadagi mayni naychali idish orqali uning ko'zasiga quyimoqda. Ularning yonidagi ikki yigit ham sharobni ko'zadan shisha idishga quyish bilan ovora. Bu jarayon, balki, ilohiy sevgi, tasavvufiy bilimlar va “ruhiy tajriba”larning bir so'fiydan boshqasiga uzatilishining ramziy belgisidir.

Tasavvufiy shoirlar va ustalarining ijodida tez-tez tilga olinadigan sharob ruhiy jazava va Xudoni anglashning timsolidir. Sharob sifati pishish va big'ish jarayonida yaxshilangani kabi, so'fiy ham Alloh bilan birlashish yo'lida botiniy o'zgarish orqali o'zini o'zi takomillashtirish bosqichlaridan o'tadi. Qo'lida ko'k rangli ko'zani tutgan yashil libosdagi yigit kompozitsiyaning chap tarafida gilamcha ustida o'tirgan mehmonga qarab turibdi. O'ng taraf chekkada me'moriy binoning oz qismi ko'rsatilgan. Orqa tomonda turli xil gullagan daraxtlar, gullar va qushlar bilan bog' tasvirlangan. Osmon tillaranda bo'lib, bu kunduzni bildiradi.

Niyozali Xolmatovning ushbu asari Behzod miniatyurasining aniq nusxasi emas, chunki muallif original asarning iliq koloritini sovuq tuslarga o'zgartiradi, Behzod qahramonlarining qiyofasiga o'zgartirishlar kiritib, kompozitsiyaga o'z uslubini kiritadi. N.Xolmatov foydalanigan qo'shimchalaridan yana bittasi – “abru-bahor” texnikasini qo'llaganidir, bu esa miniatyuraga o'zgacha ohang baxsh etgan. Shunday qilib, ustoz ijodkor N.Xolmatovning ishi mustaqil tugallangan asar bo'lib, unda O'rta asr Sharq miniatyura san'ati an'alariga ehtiyoqkor munosabati va rassomning individual yondashuvi mujassamlangan.

Bugun e'tirof etilgan, tan olingan o'zbek miniatyurachi musavvirlari orasida buxorolik musavvir Davron Toshev ijodi alohida ajralib turadi. Uning ijodida o'rta asr Sharq miniatyurasi an'alariga xos xususiyatlar ko'rinadi. Davron Toshev o'rta asrlar buxorolik musavvirlar singari an'anaviy material – qog'ozdan foydalanib, alohida sahifalarga miniatyuralar chizadi. Uning asarlari mavzusi ham an'anaviy Buxoro maktabiga mos bo'lib, ularda sevishganlarning bahor chog'ida bog'dagi uchrashuvi va bir-biri bilan xayrlashishi, she'rxonlik va sharobxo'rlik, musiqiy anjuman, donishmandlar suhbatlari tasvirlangan. Alisher Navoiy she'riyati, ulug' shoir qahramonlarining iztiroblari Davron Toshev asarlari uchun asosiy mavzuga aylangan.

An'analarni davom ettirgan ikki iste'dodli miniatyurachi rassom Qahramon Shoislomov (1972-2022) va Shorasul Shoahmedov (1970-yilda tug'ilgan) larning 2005 yilda yaratilgan “Sevishganlar” ijodiy loyihasi ham zamonaviy miniatyuraning go'zal namunasi. O'rta asrlar miniatyura san'ati maktablarining o'ziga xos xususiyatlaridan bo'lgan, qo'lyozma uchun illyuminatsiyalar tayyorlashda saroy kutubxonalarida xizmat qilgan miniatyurachi rassomlar o'rtasida vazifalarni taqsimlash an'analari davom ettirgan holda ushbu asar mualliflari ham miniatyuradagi portret (SH.Shohahmedov) va naqshinkor bezaklar (Q.Shoislomov) yaratish bosqichlarini o'zaro bo'lishib olishgan. Miniatyura qadimiy shoyi qog'oz ustiga portret janrida ishlangan. Simmetrik kompozitsiya shartli ravishda uch qismga bo'lingan: markaziy qismdagi oshiqning ikki kishilik portreti hamda ikki yon tomondagi yakka erkak va ayol tasvirlaridan iborat. Sevishganlarning tasviri o'rta asr Sharq kitobat san'atiga xos “unvon” hamda “zarvaraq” uslubidagi yorqin o'simliksimon naqshlar bilan bezatilgan hoshiya ichiga joylashtirilgan.

Asar markazida bahor faslida tabiat qo'yunda gullagan daraxt yonida o'tirgan ikki sevishganning visol onlari aks ettirilgan. Kompozitsiyada zumradrang ko'ylak ustidan jigarrang kaba va boshiga oq salla kiyib olgan yigit, egniga to'q sariq ko'ylak ustidan qizil kiyim kiygan, boshiga ro'mol va tillaqosh taqib olgan sevgilisini bag'riga bosib o'tiribdi. Tevarak atrofda turli xil ochilgan gullar va to'q ko'k rangda oqayotgan buloq atrofida toshlar bilan ifodalangan. Asarning orqa fondagi ufq chizig'ining past joylashuvi kompozitsiyaga yengillik va havodorlik bergan holda tomoshabin e'tiborini miniatyuraning asosiy qahramonlariga qaratadi.

Miniatyura kompozitsion markazining o'ng va chap tomonlarida, medalyonlarda qahramonlarning yakka tasvirlari joylashtirilgan – o'ng medalyonda qo'lida gul ushlagan qiz portreti, chapda esa ramziy qizil olma tutgan yigit portreti ko'rsatilgan. Asar kompozitsion qurilishi o'ziga xos bo'lib, yakka portretlarda tasvirlangan oshiqlar bir-biriga qarab turibdi, ular birga o'tirgan markaziy qo'sh tasvirda esa ularning nigohlari bir tomonga qaratilgan. Miniatyuradagi har uchala portret ham ko'k, feruzarang, qizil, yashil, qora va zarxal ranglardagi nozik "islamiy" naqshlar bilan bezatilgan. Asardagi yorqin kolorit, naqsh chiziqlarining nozikligi va nafisligi miniatyuraga bayramona kayfiyat bag'ishlaydi.

Ulug'bek Orifjonov – mashhur xattot, uning asarlari nafisligi va mahorati bilan e'tirof etilgan. Muallif turli ko'rgazmalar va madaniy tadbirlarda faol ishtirok etadi. Uning asarlari islom dini bilan bog'liq motivlardan tashkil topgan bo'lib, yuqori darajadagi detallashtirilishi va badiiy ifodasi bilan ajralib turadi.

Asar arab yozuvining eng qadimgi turlaridan biri (VII asr o'rtalari) Kufiy yozuvi asosida paydo bo'lgan Kufiy murabba xatida yozilgan. Bosib olingan mamlakatlardagi devonlarni (islom jamiyatlarida davlat ro'yxati) arablashtirish va tizimlashtirishdan oldin arablar bo'yusundirilgan hududlar musulmonlari uchun oson o'qiladigan va tushunarli bo'ladigan yozuvni tanlash ustida uzoq bosh qotirganlar. Natijada, Arab xalifaligining boshqa shaharlarida mavjud bo'lgan shriftlardan nafisligi jihatidan ustun bo'lgan aniq va qat'iy kufiy yozuvi tanlandi. Shunday qilib, kufiy yozuvi yirik davlatning barcha hududlarida tarqaldi. Yozuvning bu turi diakritik belgilar (unlilarni ifoda qilish uchun harflarning ost-ustiga qo'yiladigan harakatlardan foydalaniladi) ning yo'qligi, uslubining soddaligi va qat'iyligi, shuningdek, geometrik mutanosibligi bilan ajralib turadi. Kufiy uslubi asosida uning ko'plab turlari paydo bo'lgan, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega va turli kontekstlarda qo'llaniladi. Kufi murabba, yoki to'rtburchak kufiy o'zining geometrik qat'iyligi va simmetriyasi bilan ajralib turadi, me'morchilik va bezak san'atida ko'p qo'llaniladi.

Oltinrang fon ustiga ko'k rangda bitilgan Oyat al-Kursiy Baqara surasining 255-oyatidir. Baqara surasining fazilati shuki, uning ichida Oyat al- Kursiy bor. Oyat al-Kursiy Qur'oni karimdagi eng ulug' oyat ekanligi ta'kidlangan. Chunki, bu oyat Alloh taoloning go'zal ismlari, oliy sifatleri zikri kelgan eng ulug'

va sharaflari so'zlardan tarkib topgandir. Unda Alloh taoloning Vahdoniyat, Ilm, Molik, Quadrat va Iroda kabi ism sifatleri zikri kelgan. Hatto, ba'zi mufasssirlar bu oyatda Alloh taoloning o'n yettita eng ulug' ismlari jamlangan, deganlar. Ritmik kompozitsiya tillarangi oxra fonida ko'k tush bilan ishlangan va masjid shaklidagi jigarrang hoshiyaga joylangan. Shriftning pastki qismi oltinrang tagzaminda jigarrang tush bilan ishlangan, harflarning xarakatlari esa ko'k rangda berilgan. Muallif tomonidan tanlangan ko'k, oltin va jigarranglarning mutanosibligi yorqinlik effektini yaratib, asardan yon-atrofga "nur" taralayotgandek kayfiyatini beradi. Kompozitsiyaning pastki o'ng qismida muallif imzosi "Ulug'bek" arabcha harf bilan yozilgan.

Quadrat Isroilovning 2004 yilda yaratilgan "Navfal va Layli qabilalari lashkarlari o'rtasidagi jang" miniatyurasida ham O'rta asrlar miniatyura san'ati maktablarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin. «Layli va Majnun» Alisher Navoiy «Xamsa»sining uchinchi dostoni bo'lib, 1484 yilda yozilgan. Dostonning kirish boblaridan birida Navoiy an'anani davom ettirib, bu mavzuda asar yozgan salafilarini chuqur hurmat va ehtirom bilan tilga oladi. Ulardan farqli o'laroq asarini turkiyda yozganini alohida ta'kidlaydi. 10-bobdan dostonning asosiy qismi boshlanadi. Majnun sahroda ovga chiqqan lashkarboshi Navfalni ko'rib qoladi. Navfal ham bir vaqtlar ishq dardiga uchragani uchun Majnunning qalbini tushunadi, unga rahmi keladi:

Navfal dag'i ishq ko'rgan edi,
G'am dashti aro yugurgan erdi.

Navfal ishq dardidan xabardor bo'lsa-da, lekin Majnun darajasiga ko'tarila olmagan, uning sulukdagi maqomi ma'lum bir bosqichga yetgandan keyin to'xtab qolganligini ko'ramiz. Shu sababli u Majnunni Layliga uylantirish bilan uning dardiga malham topish mumkin deb o'ylayli va Layliga sovg'ini yuboradi. Lekin Laylining otasi rozi bo'lmagach, urush o'chadi. Asarda tuyalar ustida ikki qabilaning jang qilayotgani tasvirlangan. Jangchilar bir-birlariga qilich va nayzalar bilan hujum qilmoqdalar. Asarning tepa qismida tepalikda yashil daraxt ostida oq kiyimda Majnun (Qays)ning qarab turgani tasvirlangan. Osmon moviy rangda va unda oq bulut tasviri bor.

Xulosa. O'zbekiston zamonaviy san'atida o'rta asr Sharq miniatyura san'ati mavzularining badiiy talqini – bu an'ana va zamonaviylikning o'ziga xos sintezidir. Izlanish natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy o'zbek rassomlari miniatyura san'atiga murojaat qilib, uning yuksak badiiy va falsafiy qadriyatlarini e'tirof etadilar. Aniqlanishicha, zamonaviy rassomlar miniatyura an'analarni saqlab qolish bilan birga, ularni yangicha badiiy yechimlar bilan boyitmoqdalar. Ular an'anaviy kompozitsiya, ranglar uyg'unligi va tasvirlash usullaridan foydalangan holda, zamonaviy mavzular va g'oyalarni ifoda etadilar. O'rta asr Sharq miniatyura san'ati mavzularining zamonaviy talqini O'zbekiston san'atining badiiy va ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. U nafaqat o'tmish merosiga hurmatni, balki zamonaviy dunyoqarashni ham aks ettiradi. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek san'atining jahon madaniyatiga integratsiyalashuvida muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. Акилова К. “Жаҳон бадийи маданиятида Камолитдин Бехзод ижодининг ўрни”. // «SAN'AT». 2020. – №3.
2. Шоёкубов Ш. Ўзбекистоннинг бугунги миниатюра рангтавири. – Тошкент, “Шарқ”. 1994.
3. Раҳимова З. “Даврон Тошев ижодида Бухоро миниатюра мактаби анъаналарининг тикланиши”. // «SAN'AT», 2017. – №2.